

NUQSONLI BOLALAR UCHUN DEFEKTOLOGIYANING AHAMIYATI**Munisa Karimova***SamDCHTI Ingliz filologiyasi kafedrası katta o'qituvchisi***Abduraxmonova Umida Shuxratovna***SamDCHTI Kechki fakulteti**2-bosqich 2324-guruh talabasi**abduraxmonovau4@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada defektologiya fanining mohiyati va uning nuqsonli bolalar hayotidagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Bolalarning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda, defektologik yondashuv usullari va uning amaliy qo'llanilishi batafsil ko'rib chiqiladi. Maqola nuqsonli bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun ushbu fanning ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: individual, superpedagogika, tiflopedagogika, logopediya, anamol, psixologiya, ota-ona, farzand.

Bizlar imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan e'tiborsizlik qila olmaymiz. Ularga kuchli bo'lishni aytishimiz va ulardan mehrimizni ayamasligimiz lozim. Defektologiya fanining maqsad va vazifasi ham aynan shundan iboratdir. Defektologiya so'zi lotinchada defektus "kamchilik, nuqson", logos "ta'limot" degan ma'nolarni anglatadi. Bu fan aynan anamol bolalar bila to'g'ri va sifatli ishlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishni o'rgatadi. Anamol so'ziga keladigan bo'lsak bu so'z yunonchadan olingan bo'lib "noodatiy" degan ma'noni anglatadi. Defektologiya fani shunday bolalarni qobiliyatini rivojlantirish, ular bilan individual holda ishlash, ularning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanishni o'rganadi.

Defektologiya fanining rivojlanishiga psixalog olim L.V.Zankov, L.S.Vigotskiyning xizmati katta. Ular anamol bolalalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish kerakligini, korreksiya kompensatsiya usullari va ularni amalga oshirish yo'llarini fanga kiritdilar. L.S.Vigotskiy „Defektologiyaning asosiy muammolari“ kitobida anomal bolalarning nafaqat „salbiy“, balki „ijobiy“ tomonlarini ham o'rganib, aniqlab, shularga tayangan holda va ularning potensial imkoniyatlarni inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi. [1]

Defektologiya fani o'z ichiga bir nechta sohalarni oladi. Ular nuqsonli bolalar uchun kerakli sohalardir. Bular:

1. **Surdopedagogika** – eshitishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlash.

2. **Tiflopedagogika** – ko‘rish qobiliyati cheklangan bolalar uchun ta‘lim.
3. **Logopediya** – nutq nuqsonlarini tuzatish.
4. **Oligofrenopedagogika** – aqliy rivojlanishi cheklangan bolalar bilan ishlash.

Eshitish har bir inson hayotida muhim rol o‘ynaydi. Eshitmagan odam qolgan insonlar bilan muloqotga kirisha olmaydi. Eshitish bolalarning ruhiy o‘rish jarayoniga ta‘sir qiladi. Eshitish orqali insonlar ma‘lumotlarni tahlil qiladi, idrok etadi.

Ko‘rishda nuqsonlari bor bolalar: Tiflopedagogikada ko‘zi ojiz bolalar ko‘r va ko‘zi zaif ko‘ruvchi bolalar guruhlariga bo‘linadi. Ko‘r bolalarning ko‘rish qobiliyati keskin kamaygan (total ko‘rlik) yoki korreksiya qo‘llanilganda (ko‘zoynak tutilganda) ham ko‘rish o‘tkirliги 0,04 gacha pasaygan (ya‘ni bunday bolalar amalda ko‘r) bo‘ladi. Zaif bolalarda ko‘rish o‘tkirliги 0,05 dan to 0,04 gacha bo‘lishi mumkin. Ko‘rlik ham tug‘ma yoki orttirilgan bo‘ladi. Ular uchun alohida maktabgacha ta‘lim va maktab-internatlar mavjud. [2]

Nutqiy nuqsoni bor bolalarni muammosini hal qilish logopediya fanida o‘rganiladi. Bunda logopedlarning qilayotgan ishlari taqsiinga loyiq. Ular nutqida nuqsoni bor bolalar bilan individual tarzda shug‘ullanadi. Bolalarning ota-onalari bilan birga ishlab, ular bilan hamkorlikda bolalarning muammolarini hal qilishga harakat qilishadi. Albatta nutq insonlar bilan muloqot qilishda muhim rol o‘ynaydi. Achinarlisi shuki, hozirda bunday nuqson bilan tug‘ilgan bolalar soni oshib bormoqda. Bunga asosiy sabab esa homiladorlik davrida onalarning asabiylashishi, psixologik ta‘sir olishidir. Ammo yurtimizda bunday nuqsoni bor bolalarni davolash maqsadida ishlar olib borilmoqda.

Qo‘llash usullari

Defektologiyada har bir bolaning ehtiyojlariga qarab maxsus yondashuvlar tanlanadi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan usullar:

1. **Individual ta‘lim dasturlari:** Har bir bolaning rivojlanish darajasi va imkoniyatlarini hisobga olib, shaxsiy o‘quv rejasi tuziladi.
2. **O‘yin terapiyasi:** Bolalarning qiziqishlari va o‘yin orqali o‘qitish usuli.
3. **Logopedik mashg‘ulotlar:** Nutq nuqsonlarini bartaraf etish uchun mo‘ljallangan maxsus amaliyotlar.
4. **Psixologik yordam:** Bolalarning hissiy holatini barqarorlashtirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga yo‘naltirilgan yondashuv.

Defektologiyaning bolalar uchun ahamiyati

Defektologiya bolalarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- **Rivojlanish imkoniyatlari:** Jismoniy, aqliy va nutq sohalaridagi nuqsonlarni imkon qadar kamaytirish.

- **Jamiyatga moslashish:** Maxsus ta'lim bolalarni mustaqil hayotga tayyorlashga yordam beradi.

- **O'ziga ishonchni oshirish:** Bolalar o'z imkoniyatlarini anglaydi va jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida rivojlanadi. [3]

Bundan tashqari, defektologiya nafaqat bolalarga, balki ularning ota-onalari va pedagoglar uchun ham yordam beradi. Ota-onalar defektolog yordamida o'z farzandlarini qanday tarbiyalashni o'rganadilar, pedagoglar esa maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash metodikalarini o'zlashtiradilar.

Nuqsonli bolalar bilan ishlashda defektologiya fanining ahamiyati beqiyosdir. Bu soha nafaqat bolalarning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratadi, balki ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Defektologiya orqali maxsus ehtiyojli bolalar yanada mustaqil, ijtimoiy moslashgan va baxtli hayot kechirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu sababli, ushbu sohani rivojlantirish va keng joriy etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.Sh.Shamurotova, O'.M.Otaullayeva. Defektologiya fani va uning dolzarb masalalari. Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016)
2. J. Hasanboyev, X.A To'raqulov, I.SH. Alqarov "Pedagogika" darslik 2011-yil. 418- 428 betlar.
3. Barkhudarov, A. (2019). "Defektologik xizmatlar samaradorligini oshirish yo'llari." *Yangi pedagogik qarashlar*, №4, 33–40-betlar.